O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“Tasdiqlayman”
QarMII rektori
O.SH.Bazarov
“___” ______ 2024-y.

Ro‘yxatga olindi № 08/01/004
“29” avgust 2024 y.

# O‘ZBEK TILI
# FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 700 000 - Muhandislik, Ishlov berish va qurilish sohalari |
| **Ta’lim sohasi:** | 710 000 - Muhandislik ishi |
| **Ta’lim sohasi:** | 720 000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60710400 - Energetika muhandisligi |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60710500 - Elektr muhandisligi |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60720700 -Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo‘yicha) |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60721800 - Neft va gaz ishi (Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) |

Qarshi-2024

## "O'zbek tili" fani dasturi

| **Fan (modul) kodi**<br>Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq | **O'quv yili**<br>2024-2025 | **Semestr**<br>1-2 | **ECTS krediti**<br>4 |
|---|---|---|---|
| **Fan (modul) turi**<br>majburiy | **Ta'lim tili**<br>rus | | **Haftalik dars soati**<br>4 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim** | **Jami yuklama** |
| O'zbek tili | 60 | 60 | 120 |

| 1. | **I.Fanning mazmuni** |
|---|---|
| | "O'zbek tili" fani nofilologik ta'lim yo'nalishlarining 1 kurslari mo'ljallangan bo'lib (1-2 semestr), egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikm malaka, madaniy dunyoqarashning zaruriy me'yorlarini asoslovchi fanlard biridir.<br>Fanning vazifasi davlat tilida nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish; og'za va yozma nugqda sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalari shakllantirish; ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahhlil qilish malakalari hosil qilish; sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to'ldiri va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish.<br>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning o'zbek tilida soha bo'yicha nutq kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og'zaki va yozma nutqida sohav terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarga so bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda eti malakalarini takomillashtirish; sohada qo'llanadigan terminlar, asosiy tushunchal va soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlas nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlarid foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish. |

| | |
|---|---|
| 2. | **II. Asosiy qism (Amaliy mashg'ulot)**<br><br>**1. Mavzu: O'zbekiston - yagona vatan.** Mustaqil O'zbekiston. O'zbekiston - ko'p millatli davlat. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rni. Grafika. Orpoefiya.<br>**2. Mavzu: O'zbek tili - davlat tili.** Davlat tili tushunchasi. Til va jamiyat. O'zbek tili va davlat qonunlari.<br>**3. Mavzu: Til va yozuv masalalari.** Yozuv haqida umumiy tushuncha. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari. O'zbek tili imlo qoidalari.<br>**4. Mavzu: Milliy qadriyatlar - millat iftixori.** O'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati. Milliy urf-odatlari. O'zbek udumlari. Mehmondo'stlik. O'zbek tilida so'z yasalishi.<br>**5. Mavzu: Tarix va zamonamiz.** Tariximizga oid manbalar. Tarix tilga kirganda. O'zbekistonning qadimiy shaharlari. Tarixiy obidalar. Tilning leksik qatlamlari.<br>**6. Mavzu: Ulug' ajdodlarimiz.** Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi. Beruniyning jahon ilmiga qo'shgan hissasi. Til va terminologiya. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari.<br>**7. Mavzu: Vatan va vatanparvarlik.** Vatan tuyg'usi. Xotira va qadrlash - insoniylik belgisi. Tilning lug'at tarkibi. Ijtimoiy-siyosiy leksika.<br>**8. Mavzu: Kelajak bilimli yoshlar qo'lida.** Yoshlarning yutuqlari. Yoshlar - innovatsion g'oyalar tashabbuskori. Iqtidorli yoshlar — yurt kelajagi. Texnika sohasiga oid terminlaring yasalishi.<br>**9. Mavzu: Zamonaviy dunyoda ta'lim.** Ta'lim va zamon. Dunyoda tan olingan ta'lim tizimlari. Sohaviy temminlar va ulaming qo'llanilishi.<br>**10. Mavzu: Adabiyot - ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba.** O'zbek adabiy tilining asoschisi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Badiiy nutq uslubi va uning qo'llanish xususiyatlari.<br>**11. Mavzu: Kitob mutolaasi.** Alisher Navoiy nomidagi kutubxona. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi. Frazeologik birliklar va uslubiy xususiyatlari.<br>**12. Mavzu: Qatag'on qurbonlari.** Jadidchilik harakati. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi. So'zlarning shakl munosabatiga ko'ra turlari.<br>**13. Mavzu: Ommaviy axborot vositalari.** Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati. Axborotdan unumli va o'rinli foydalanish. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.<br>**14. Mavzu: O'zbekiston va jahon.** O'zbekistonning xalqaro aloqalari. O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar. BMT va xalqaro burchlar. Rasmiy uslub va uning xususiyatlari.<br>**15. Mavzu: XXI asrda innovatsiyalar.** Inson qo'li bilan yaratilgan meros. Fan-texnika taraqqiyoti. Fan va amaliyot. Sohalardagi innovatsiyalar haqida ma'lumot. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. |



| | |
|---|---|
| | **16. Mavzu: Tabiat va inson.** Tabiatning inson hayotida tutgan o'rni. Tabiatni asrash har bir insonning burchi. So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.<br>**17. Mavzu: Davrimizning global muammolari.** Insoniyat oldida turgan global muammolar va ulaming yechimi to'g'risida. Ekologik muammolar. Maqola va uning turlari.<br>**18. Mavzu: Inson va salomatlik.** Sog'liqni saqlash. Salomatligingiz o'z qo'lingizda. Shahsiy gigiyena - salomatlik garovi. Reportaj tayyorlash.<br>**19. Mavzu: Bo'lajak kasbim.** Muhandislik kasbi, Mutaxassislik tarixi. Kasb mashaqqatlari. Matn va uning ko'rinishlari. Morfologiya haqida ma'lumot.<br>**20. Mavzu: Ustoz maktabi.** Ustoz-shogirdlik an'anasi. Ustoz otangdan ulug'. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.<br>**21. Mavzu: Hayot mening tasavvurimda.** Oila - jamiyat tayanchi. Komil insonni tarbiyalashda oilaning ahamiyati. O'zbek oilasi. Yoshlarning hayotga munosabati va qiziqishlari haqida. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar.<br>**22. Mavzu: Kasbim tarixi.** Texnika sohasidagi yetuk mutaxassislar. Soha lug'atlari, ularda terminlar va birikmalarning berilishi.<br>**23. Mavzu: Yetuk mutaxassis.** Soha olimlari. Ularning O'zbekiston ilm-faniga qo'shgan hissasi. Matn tahlili va tahriri.<br>**24. Kasb bayrami.** Matn mazmunining qisqacha bayoni(tezisi),uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.<br>**25. Mavzu: Sharq akademiyalari.** Xorazm Ma'mun akademiyasi. Sharq olimlatining jahon ilmiga qo'shgan hissasi. Referat matni, uninng tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.<br>**26. Mavzu: Ilm sari yo'l. Mirzo Ulug'bek.** Mirzo Ulug'bekning aniq fanlar rivojiga qo'shgan hissasi. Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari. Ilmiy maqolaga taqriz yozish.<br>**27. Mavzu: Kasb etikasi.** Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.<br>**28. Mavzu: Nutq odobi.** Nutq madaniyati. O'zbekona odob. Nutqni bayon qilish usullari. Jamoa orasidagi muloqot. Adabiy me'yor tushunchasi.<br>**29. Mavzu: "Internet hayotimizda".** Internet madaniyati haqida matn tuzish. Annotatsiya matni va uning ifoda materialining xususiyatlari. Mutaxassislikka oid terminlar ustida ishlash.<br>**30. Men sevgan badiiy asar.** Badiiy asar haqidagi taassurotlarim. Abdulla Qodiriyning hikoya va yumoristik asarlari mutolaasi. Badiiy tasviriy vositalar. |
| 3. | **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**<br><br>Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos |

ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun kabi davlat hujjatlarida o'zbek tilini Davlat tili sifatida o 'qitish masalalari bo'yicha ma'lumot to'plash.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5850-sonli farmonida belgilangan vazifalarning amalda bajarilishi masalalari.
3. O'zbek tilining imlo qoidalari. "XXI asr - texnologiyalar asri" mavzusida esse yozish.
4. O'zbek tilining leksik qatlami. Ilmiy-texnikaga oid o'zlashgan so'zlar.
5. O'zbek lug'atshunosligi. O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan texnikaga oid so'zlar izohi bilan tanishish.
6. Fan-texnika sohasiga (mutaxassisligi bo'yicha) oid maqolalar ustida ishlash
7. Texnika sohasi olimlarning hayoti va faoliyati bilan tanishish.
8. Nutq uslublari bo'yicha topshiriqlar bajarish.
9. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'otit turk" asaridagi atamalar.
10. Hutqiy ko'nikmalarni shakklantirish. Arastu va Abu Nasr Forobiyning notiqlik haqidagi qarashlari.
11. Nutqiy mahorat. Ma'ruza tayyorlash usullari.
12. Alisher Navoiyning tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan asarlari.
13. Fitratning tilshunoslikka bag'ishlangan asarlari.
14. Oybekning tilshunoslikka bag'shlangan asarlari.
15. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda kitob mutolaasining ahamiyati haqida essi yozish.
16. O'zbek olimlari faoliyati aks etgan badiiy asarlar (O.Yoqubov "Diyonat", O'. Usmonov "Girdob" , P. Qodirovning "Olmos kamar" asarlari)ni mutolaa qilish.
17. Nutqiy kompetentlikka rioya qilish. Fan-texnika sohasi bo'yicha taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish.
18. Publitsistik nutq uslubi. Fan-texnika sohasi bo'yicha e'lon qilingan OAV materiallari ustida ishlash.
19. Mutaxassislik tarixi bo'yicha referat tayyorlash va himoya qilish.
20. Mutaxassislikka oid terminlar ustida ishlah.
21. Tarjima mahorati. Ilmiy matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
22. Mutaxassislik bo'yicha taqdimot tayyorlash va namoyish etish.
23. Mutaxassislik bo'yicha ilmiy maqola tayyorlash ustida ishlash.



24. Mutaxassislikka oid ixtiyoriy ilmiy asarga annotatsiya tayyorlash.
25. Mutaxassislikka oid ixtiyoriy ilmiy asarga taqriz tayyorlash.
26. Mutaxassislik bo'yicha mavzularni yoritishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash.
27. Ixtisoslikka oid matnlar ustida ishlash.
28. Hujjatchilik tarixi. Ish qog'ozlari bilan ishlash.
29. Fan-texnika sohasidagi innovatsion yangiliklar haqida taqdimot tayyorlash va terminlarni tahlil qilish.
30. Ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish.

**4.** **IV. Ta'lim texnologiyalari va uslublari:**

- topshiriqlar asosida amaliy ish;
- jarayonga yo'naltirilgan ta'lim;
- bahs munozara;
- loyihalar ustida ishlash;
- mustaqil o'rganish;
- taqdimot;
- yozma portfolioni tuzish;
- savol-javob suhbati;
- rolli o'yinlar;
- amaliy mashg'ulotlar.

**5.** **V. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish ( test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talalabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018-yil 9-avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

**6.** **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi,

fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talalabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik) – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 282 b.
2. Normatova Sh. Abdurahmonova M, O'zbek tili (darslik) –Toshkent: JIDU, 2014. – 92 b.
3. Husanova N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova I. O'zbek tili (o'quv qo'llanma) 2020.


**Qo'shimcha adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5850-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston respublikasi vazirlari mahkamasi huzuridagi atamalari komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 40-son qarori.
3. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. "O'zbek tili". T. TATU. "Aloqachi" 2019.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli)- Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020
6. Sohaviy lug'atlar.


**Elektron resurslar:**

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
3. www.ziyonet.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.



| | |
|---|---|
| | 4. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. |
| 7. | Fan dasturi institut Uslubiy kengashi tomonidan ma'qullangan (Bayonnoma № ___ "___" _____2024-yil.<br>Fan dasturi institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan (Bayonnoma № ___ "___" _____2024-yil. |
| 8. | **Fan (модуль) uchun mas'ul:**<br>**Begimov O.T.** - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, f.f. d. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**Jabborov X.J.** - QarDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, f.f.d.<br>**Aminova Z.P.** - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, p.f.n. |